

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**

“KIRITDI”

Toshkent to‘qimachilik va yengil
sanoat instituti yoshlar masalalari
va ma’naviy-ma’rifiy ishlar
bo‘yicha birinchi prorektor



B.Nasimov

2026-y



“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi

“15” 06 2026-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari

**60210400 – “Dizayn: Poyabzal va aksessuarlar dizayni ” ta’lim
yo‘nalishi uchun**

Dastur Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti (TTYSI) o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan (2026-yil 22-may, 10-sonli majlis bayoni).

Tuzuvchilar:

T.J. Kodirov

TTYSI "Charm va poyapzal muhandisligi"
kafedrasi, t.f.d.

M.U.Ilxamova

TTYSI "Charm va poyapzal muhandisligi"
kafedrasi, dotsenti

R.T.Axmedov

TTYSI "Moda va dizayn" kafedrasi dotsenti

Taqrizchilar:

Z.P.Xaitova

K.Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizain
instituti (MRDI) "Libos dizayni" kafedrasi mudiri

N.S. Rasulov

"Nafis" MChJ direktori

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda charm-poyabzal va mo'ynachilik sanoatini rivojlantirish, raqobatbardosh, import o'rnini bosuvchi hamda eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining charm-poyabzal sohasini rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlariga muvofiq, korxonalarni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, mahsulot turlarini kengaytirish, milliy brendlarni yaratish, dizayn faoliyatini rivojlantirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlat siyosatida sohaning eksport salohiyatini oshirish, poyabzal va aksessuarlar ishlab chiqarish sohasida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, zamonaviy loyihalash va dizayn usullarini joriy etish, shuningdek ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan sohada badiiy loyihalash ko'nikmalariga, zamonaviy kompozitsion fikrlashga, moda tendensiyalari, materiallar va texnologiyalarni bilishga ega bo'lgan malakali poyabzal va aksessuarlar dizaynerlariga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Bo'lajak dizaynerlarni tayyorlash jarayonida "Chizmatasvir" va "Kompozitsiya" fanlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu fanlar talabalarda ijodiy fikrlash, badiiy did, fazoviy tasavvur, obrazli-konstruktiv tahlil va grafik taqdimot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur fanlar zamonaviy bozor va moda industriyasi talablariga javob beradigan poyabzal va aksessuarlar kolleksiyalarini yaratish uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi.

60210400 – "Dizayn: poyabzal va aksessuarlar dizayni" ta'lim yo'nalishi bo'yicha Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi o'rta maxsus, professional va ixtisoslashtirilgan badiiy ta'lim muassasalari o'quv dasturlari asosida ishlab chiqilgan. Dastur abituriyentlarning amaliy ko'nikmalari, ijodiy qobiliyati, kompozitsion fikrlashi va badiiy tayyorgarlik darajasini aniqlashga qaratilgan.

60210400 – "Dizayn: poyabzal va aksessuarlar dizayni" ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida **"Chizmatasvir"** va **"Kompozitsiya"** fanlaridan amaliy vazifalarni bajaradilar. Bajarilgan ishlar tasdiqlangan mezonlar asosida baholanadi va bunda abituriyentning badiiy tayyorgarligi, kompozitsion yaxlitligi, ijodiy yondashuvi, grafik taqdimot sifati hamda kasbiy ko'nikmalari inobatga olinadi.

Jami ball	Jumladan:	
	"Kompozitsiya" fanidan	"Chizmatasvir" fanidan
156	93	63

FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Kostyumni yaratish – bu kiyimning xilma xil shakl va konstruktsiyalarini doimo izlash jarayonidir, liboslar eskizlarini ishlash va loyihani materialda bajarishgacha bo‘lgan bir necha bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Chizmatasvir – barcha tasviriy san'at turlarining (rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, grafika, haykaltaroshlik va hokazolar) asosi hisoblanadi. “Chizmatasvir” fani “Dizayn” ta'lim yo‘nalishidagi talabalar uchun asosiy vazifasini o‘tab, ularda badiiy didlarini oshirishda muhim o‘rinni egallaydi.

Abituriyentning quyidagi bilimlarini va qobiliyatini aniqlashdan iborat:

- shakl va hajmni tahliliy idrok qilish va anglash qobiliyati;
- fazoviy va konstruktiv idrok etish mahorati;
- shaxsiy mualliflikdagi grafika ishi.

Vazifani bajarishda abituriyent quyidagilarni bilishi kerak:

- qog‘oz yuzasiga qo‘yilmani konstruktiv to‘g‘ri joylashtirish;
- tasvirlanayotgan qo‘yilmani nisbatlarini to‘g‘ri aniqlash va hajm chiqarish yechimlarini ifodalay olish.

Kompozitsiya – barcha san'at turlarini asosiy tushunchasi bo‘lgani uchun talabalar ushbu tushunchaga oid qoidalarni bilishi kerak.

Kompozitsiya kursi talabalarda obrazli o‘ylashni, fantaziyani, didning takomillashuvini hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, dizaynerlik faoliyati mobaynida korxonalarda liboslarni, badiiy loyihalash, milliy moda va uslub yaratishda kasbiy bilim va ko‘nikmalarni hosil qiladi.

Ijodiy imtihonning asosiy maqsadi – institutga kiruvchining kasbiy layoqatini, ijodiy qobiliyatini va badiiy tayyorgarlik darajasini, obrazli-konstruktiv tafakkurini hamda yangi modellar eskizlarini ishlab chiqishi ko‘nikmalarini aniqlash. Abituriyentning quyidagi bilimlarini va qobiliyatini aniqlashdan iborat:

- shakllarni emotsional va hissiy qabul qilish, ifodali va mantiqiy fikrlash qobiliyati;
- fazoviy va konstruktiv fikrlash mahorati;
- original obraz, g‘oyani topa olish, fantaziya, tasavvur qilish qobiliyati;
- shaxsiy mualliflikdagi eskiz va badiiy grafika;
- emotsional ranglar holatini, syujet va tasavvur, ranglar gammasini idrok qilishi va ifodalashi;
- berilgan mavzuning kompozitsiyaviy va rang yechimlarining o‘zaro uyg‘unligi.

1. 60210400 – “Dizayn: poyabzal va aksessuarlar dizayni” ta'lim yo‘nalishiga kiruvchi abituriyentlar uchun fanlardan ijodiy imtihon dasturi

1.1. “Chizmatasvir” fani bo‘yicha.

Imtihonda abituriyentlar gipsli modelni (klassik haykal boshini) naturadan chizmachilik asboblari va ko‘rgazmali materiallardan foydalanmagan holda, grafit

qalamda bajaradilar. “Chizmatasvir” fani bo’yicha kasbiy (ijodiy) imtihon topshirig’idan namuna 1-ilovada keltirilgan.

Chizmatasvir **50x70** formatdagi planshetga tortilgan qog’ozda (vatman) **5 soat** mobaynida bajariladi. Har bir abituriyentning chizmatasvir ishlari bitgandan so’ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash me’zoni asosidagi **63** balli shkala bo’yicha baholanadi.

1. Chizmatasvir bo’yicha imtihon maxsus jihozlangan auditoriyada o’tkaziladi.

2. Auditoriyaga kirishdan avval abituriyent raqam olib mazkur raqamdagi stolga borib joylashadi.

3. Abituriyent amaliy ish bajarish uchun qabul komissiyasi tomonidan **50x70** formatdagi planshetga tortilgan qog’oz muxrlanadi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi rasmiylashtiriladi.

4. Imtihonda qatnashishga imtihon varaqasi va pasport asosida ruxsat beriladi. Imtihonga begona shaxslarning kirishiga yo’l qo’yilmaydi.

5. Vazifalarni berish, ishni bajarish oldidan imtihon oluvchining bajariladigan ish tartibini tushuntirishi, titul varaqasini to’ldirish kabilar ushbu ishni bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt reglamentiga kiradi.

6. Har bir auditoriyada abituriyentlar bilek tanlash asosida bir mavzu tanlaydilar.

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarga ega bo’lishi kerak:

- turli och-to’qlikdagi grafit qalamlar;
- yumshoq o’chirg’ichlar;
- **50x70** hajmdagi qog’oz (vatman) tortilgan planshet;
- qalam ochish uchun ochqich yoki scalpel.

7. Zarur bo’lgan hollarda abituriyentning arizasiga muvofiq buzilgan qog’oz almashtirib berilishi mumkin, bunda dastlabki qog’oz yo’q qilinadi. Yangi berilgan qog’oz ham shtampli bo’lishi lozim. Abituriyent qog’ozni almashtirganda vazifa uchun ajratilgan vaqtga qo’shib bermasligi to’g’risida oldindan ogohlantiriladi.

8. Abituriyentlarga bajargan ishiga imzo, biror bir belgi qo’yish va suratga olish qat’iyan taqiqlanadi.

9. Bajarilgan ish qabul komissiyasiga topshiriladi va ular shifrlangandan so’ng fan komissiyasi tomonidan tasdiqlangan baholash me’zonlariga muvofiq ball tizimida baholanadi. Qo’yilgan ballar so’z bilan ham yoziladi va baholar qog’ozning ish bajarilgan tomonida bo’lishi lozim.

10. Baholar imtihon qaydnomalariga ko’chiriladi. “Chizmatasvir” fani bo’yicha imtihon bahosi natijalari 1-3 kun muddatda institut rasmiy “web-saytida” e’lon qilinadi.

11. Baholangan ishlar apellyatsiya o’tkazish uchun qabul komissiyasida qoladi, (abituriyentlarga qaytarib berilmaydi).

12. Abituriyentlar oliy ta’lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan sanitariya gigiyena qoidalarini so’zsiz bajarishlari shart. Mazkur qoidalarga abituriyentlar tomonidan amal qilmaslik imtihon tartiblarini buzgan hisoblanadi va fan bo’yicha imtihon komissiyasi raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnoma tuzilib chetlashtiriladi.

“Chizmatasvir” fani bo‘yicha abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Mezonlar	Maksimal ball	Abituriyent to‘plagan ball
1	Tasvirni qog‘oz planshetga kompozitsion to‘g‘ri joylashtirish	13,0	
2	Naturaning konstruktiv tuzilishlari va nisbatlarning to‘g‘ri tasvirlangani	15,0	
3	Soya-yorug‘ qonuniyatlarini to‘liq ifodalash va tus munosabatlarini aniqlash	10,0	
4	Materiallik (gips, mato va b.) to‘g‘ri ko‘rsatilganligi	15,0	
5	Tasvirni yaxlit holatga keltirib ishni grafik jihatdan umumlashtirish va yakunlash	10,0	
	Jami	63,0	

Izoh: Abituriyentlarning natijalarini baholash, ko‘rsatgan natijalariga muvofiq 100 (yuz) dan 1 (bir) ulushda baholanadi.

Ushbu talablarning barchasini bajargan abituriyentlar eng yuqori 93 ballga ega bo‘ladi.

Ijodiy imtihonlar bo‘yicha ijodiy sinovlar o‘tkazuvchi komissiya a‘zolari mutaxassislik kafedralari professor-o‘qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

1.2. “Kompozitsiya” fani bo‘yicha

Imtihonda abituriyentlar tomonidan turli texnikada (akvarel, grafika, kollaj, applikatsiya va b.) berilgan mavzu bo‘yicha poyabzal va aksessuarlar to‘plami kompozitsiyasi bajariladi. “Kompozitsiya” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon topshirig‘idan namuna 2-ilovada keltirilgan.

Kompozitsiya kamida 3 ta va ko‘pi bilan 5 ta buyumdan tashkil topishi kerak. Poyabzal va aksessuarlarning turli xil kombinatsiyalariga ruxsat etiladi, masalan:

- 2 ta aksessuar; va 1 poyabzal eskizi
- 2 ta poyabzal va 1 ta aksessuar eskizi
- 2 ta poyabzal va 2-3 ta aksessuar eskizi
- 3 ta poyabzal va 1–2 ta poyabzal eskizi;

Aksessuar sifatida quyidagilar taqdim etilishi mumkin: sumka, ryukzak, belbog‘, hamyon, kalitdon, klatch, kardholder va boshqa buyumlar.

Bajarish talablari:

- Ish formati - **50x70** formatdagi planshetga tortilgan qog‘ozda
- Bajarish texnikasi — grafik.
- Marker, layner, rangli qalam, akvarel yoki aralash texnikada bajarishga ruxsat etiladi.
- Kompozitsiya uslubiy jihatdan yagona bo‘lishi kerak.
- Buyumlarning konstruktiv tuzilishi va nisbatlariga rioya qilinishi lozim.
- Kompozitsiyaning barcha elementlari varaqda garmonik joylashtirilishi kerak.

- Rang yechimi tanlangan mavzu va uslubga mos bo‘lishi lozim.
- Grafik taqdimot aniq, ifodali va tugallangan bo‘lishi kerak.

Kompozitsiya **50x70** formatdagi planshetga tortilgan qog‘ozda (vatman) **6 soat** mobaynida bajariladi. Har bir abituriyentning kompozitsiya ishlari bitgandan so‘ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash mezonini asosida maksimal **93**-balli shkala bo‘yicha baholanadi.

1. Kompozitsiya bo‘yicha imtihon maxsus jihozlangan auditoriyada o‘tkaziladi.

2. Auditoriyaga kirishdan avval abituriyent raqam olib mazkur raqamdagi stolga borib joylashadi.

3. Abituriyent amaliy ish bajarish uchun qabul komissiyasi tomonidan 50x70 formatdagi planshetga tortilgan qog‘oz muxrlanadi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi rasmiylashtiriladi.

4. Imtihonda qatnashishga imtihon varaqasi va pasport asosida ruxsat beriladi. Imtihonga begona shaxslarning kirishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. Vazifalarni berish, ishni bajarish oldidan imtihon oluvchining bajariladigan ish tartibini tushuntirishi, titul varaqasini to‘ldirish kabilar ushbu ishni bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt reglamentiga kiradi.

6. Har bir auditoriyada abituriyentlar bilek tanlash asosida bir mavzu tanlaydilar.

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarga ega bo‘lishi kerak:

- 50x70 hajmdagi qog‘oz (vatman) tortilgan planshet;
- har xil yumshoqlikda grafit va rangli, uchi o‘tkirlangan qalamlar;
- avtomat tarzda ishlaydigan 0,5 va 0,7 mm qalinlikdagi grifellarga ega qalamlar (dozatorlar);
- yumshoq o‘chirg‘ichlar;
- qalam ochish uchun ochqich yoki skalpel;
- kompozitsiyani rangda bajarish uchun akvarel, guash bo‘yoqlari, moy qalam, geleviy ruchkalar, palitra va suv uchun idish.

Bundan tashqari kompozitsiyani bajarayotganda abituriyent o‘zining turli texnik qobiliyatlariga bog‘liq boshqa instrumentlarga ham ega bo‘lishi mumkin, lekin quyidagilarga ruxsat etilmaydi:

- moy bo‘yoq asosidagi bo‘yoqlar va uzoq vaqtni (15 minutdan ortiq) talab etadigan bo‘yoqlar;
- maxsus qotish jarayonini talab qiladigan pastel va chizilgan kompozitsiya yengil o‘chib ketadigan badiiy materiallardan foydalanish.

qog'oz ham shtampli bo'lishi lozim. Abituriyent qog'ozni almashtirganda vazifa uchun ajratilgan vaqtga qo'shib bermasligi to'g'risida oldindan ogohlantiriladi.

8. Abituriyentlarga bajargan ishiga imzo, biror bir belgi qo'yish va suratga olish qat'ian taqiqlanadi.

9. Bajarilgan ish qabul komissiyasiga topshiriladi va ular shifrlangandan so'ng fan komissiyasi tomonidan tasdiqlangan baholash me'zonlariga muvofiq ball tizimida baholanadi. Qo'yilgan ballar so'z bilan ham yoziladi va baholar qog'ozning ish bajarilgan tomonida bo'lishi lozim.

10. Baholar imtihon varaqasi va imtihon qaydnomalariga ko'chiriladi. "Kompozitsiya" fani bo'yicha imtihon bahosi natijalari 1-3 kun muddatda institut rasmiy "web-saytida" e'lon qilinadi.

11. Baholangan ishlar apellyatsiya o'tkazish uchun qabul komissiyasida qoladi, (abituriyentlarga qaytarib berilmaydi).

12. Abituriyentlar oliy ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan sanitariya gigiyena qoidalarini so'zsiz bajarishlari shart. Mazkur qoidalarga abituriyentlar tomonidan amal qilmaslik imtihon tartiblarini buzgan hisoblanadi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnoma tuzilib chetlashtiriladi.

"Kompozitsiya" fanidan imtihon topshiruvchi abiturientlar quyidagi shartlarni bajarish lozim:

- kompozitsiya mavzusi original jihatdan topilganligi, ishning kompozitsion g'oyaviy mazmundorligi;
- badiiy ifodaning mutaxassislikka mosligi, turli shakllarning kompozitsion jihatdan to'g'ri ishlatilganligi;
- chizilgan eskizlarning bir-biriga uyg'unligi, elementlarning to'g'ri topilganligi;
- berilgan topshiriqning mazmuni, ma'nosi to'liq ochilganligi, bajarilgan ishni ashyoda noziklik bilan ishlanish mahorati, ishning tugatilganligi.

60210400 – "Dizayn: poyabzal va aksessuarlar dizayni" ta'lim yo'nalishi kompozitsiya bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihoni uchun mavzular ro'yxati

1. Ayollar poyabzali va aksessuarlarining klassik uslubdagi kompozitsiyasi
2. Casual uslubida erkaklar poyabzali va aksessuarlarining kompozitsiyasi
3. Kontrast materiallardan foydalanilgan poyabzal va aksessuarlarining kompozitsiyasi.
4. Milliy naqshlardan foydalanilgan ayollar poyabzal va aksessuarlarning kompozitsiyasi
5. Sport uslubdagi poyabzal va aksessuarlarning kompozitsiyasi.
6. Yosh bolalar boyabzal va aksessuarlarning kolleksiyasining kompozitsiyasi.
7. O'sprinlar uchun sport uslubdagi poyabzali va aksessuarlarining kompozitsiyasi.

8. Ayollar romantik uslubdagi bashang poyabzali va aksessuarlarining kompozitsiyasi

60210400 – “Dizayn: poyabzal va aksessuarlar dizayni” ta’lim yo’nalishining kasbiy (ijodiy) imtihonda “Kompozitsiya” fani bo’yicha abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Mezonlar	Maksimal ball	Abituriyent to’plagan ball
1.	Poyabzal va aksessuarlar to’plami kompozitsiyasini yaxlitligi, berilgan uslubga mosligi	25,0	
2.	Poyabzal va aksessuarlar to’plami kompozitsiyasini g’oyaviy yechimini ijodiy yondashuvi.	25,0	
3.	Poyabzal va aksessuarlar to’plam kompozitsiyasini shakl, rang va material uyg’unligi	20,0	
4.	Poyabzal va aksessuarlar to’plam kompozitsiyaning bajarilish texnikasi va grafik taqdimot sifati	23,0	
	Jami	93,0	

Izoh: Abituriyentlarning natijalarini baholash, ko’rsatgan natijalariga muvofiq 100 (yuz) dan 1 (bir) ulushda baholanadi.

Ushbu talablarning barchasini bajargan abituriyentlar eng yuqori **93** ballga ega bo’ladi.

Ijodiy imtihonlar bo’yicha ijodiy sinovlar o’tkazuvchi komissiya a’zolari mutaxassislik kafedralari professor-o’qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

2. Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan ijodiy imtihon natijalari bo’yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay’atiga natijalar e’lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Apellyatsiya tartibiga ko’ra arizachining faqat o’z ishini baholanishi doirasidagi e’tirozi qabul qilinadi.

Apellyatsiyalar Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi Oliy ta’lim tashkilotlariga o’qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risidagi 578-sonli qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq ko’rib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aristides, Juliette. Beginning Drawing Atelier: An Instructional Sketchbook. Paris: Atelier du Dessin Classique, 2023.
2. Holmes, Catherine V. How to Draw Cool Stuff: A Drawing Guide for Teachers and Students. – 2nd ed. – USA: Library Tales Publishing, 2020.
3. X.X. Kamilova, N.A.Isahojayeva, K.R.Fuzailova. Kostyum kreativ grafikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017.
4. N.A.Isahojayeva, A.F.Karimov, R.T.Axmedov. Chizmatasvir va rangtasvir. – TTYSI bosmaxonasi, 2018.
5. B.Boymetov. Qalamtasvir. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2013.
6. Ермолаева Л.П. Основы дизайнерского искусства: декоративная живопись, графика, рисунок фигуры человека. Москва, 2001.
7. Hywel Davies. Fashion Designers' Sketchbooks. – United Kingdom, London, 2010.
8. Bina Abling. Fashion Sketchbook. Firechild Book, New York, 2012 y
9. S.Abdurasilov, N.Tolipov. N.Oripova. Rangtasvir. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2006.
10. B.B.Boymetov, M.S. Tolipov. Plastik anatomiya. – T.: Ilm Ziyo, 2005.
11. B.B. Boymetov. Chizmatasvir. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2005. -190 b.
12. S.Bulatov. Rangshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.-160 b.
13. N.Sodiqova. O'zbek milliy kiyimlari XIX- XX asrlar- T.: G'.G'ulom, 2006.
14. Зарида Заман. Справочник дизайнера по формам и стилям одежды. Москва, 2008.
15. Л.А.Сафина, Л.М.Тухтабулина, В.В.Хаматова – Проектирование костюма – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007.
16. Гусейнов Г.М. Композиция костюма. Москва, 2003
17. Н.С. Макаеева. Основы художественного проектирования костюма. Практикум.-М.: Академия, 2008.
18. Ф.М.Пармон. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. -М. “Триада плюс”, 2002.
19. Ш. Зеленг. Век модельеров. 1900- 1999 – Штутгарт: 2001.
- Axborot manbalari:**
20. <https://www ghenadiesontu.com/blog/tag/%D0%A3%D1%87%D0%B5%D0%B1%D0%BD%D0%BE%D0%B5+%D0%BF%D0%BE%D1%81%D0%BE%D0%B1%D0%B8%D0%B5>
21. https://www ghenadiesontu.com/blog/risunki-gipsovykh-golov?srsltid=AfmBOorZISk0Wnkys3_6vEnqflnXlv0VR9l5loO-XdANI6Op0ze9Th_P <http://modanews.ru/books>
22. [https://www.elle.ru/moda/fashion-blog/5-sekretov-feshn-illy us tratsi](https://www.elle.ru/moda/fashion-blog/5-sekretov-feshn-illy-us-tratsi)
23. www.wmj.ru/moda

Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi
va baholash mezoniga
1-ilova

**“Chizmatasvir” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon topshirig’idan
NAMUNA**

Vazifa: Antik davr xaykali bosh qismining akademik chizmatasviri



**“Kompozitsiya” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon topshirig’idan
NAMUNA**

Vazifa: Berilgan mavzu bo‘yicha liboslar to‘plami kompozitsiyasi

